

---

## TOJKISTON DELEGATSIYASI RISHTONDA!

Farg'ona viloyatida bo'lib turgan Tojikistonning So'g'd viloyatidan kelgan bir guruh qishloq xo'jaligi sohasi vakillaridan iborat delegatsiya Rishton tumaniga tashrif buyurdi.

Viloyat hokimi o'rinbosari Alibek Tursunov va tuman hokimi Bahodirjon Xoliqov xamrohligida mehmonlar dastlab "Kosto Line Holding" xorijiy korxonasida bo'lib jarayonlar bilan tanishdilar.

Mehmonlar to'qimachilik fabrikasida Rishtonda yetishtirilgan paxta xomashyosini qayta ishlab, undan tola, kalava, mato va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishdilar.

Korxonra rahbari Magomed Kostoev bilan suhbatda bo'lgan tojikistonlik paxta yetishtirishdan to tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayonlar haqida ma'lumotga ega bo'lishdi.

Shundan so'ng, mehmonlar Rishton tumani MTPda bo'lishib, bahorgi dala ishlarida qatnashadigan qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash ishlarini ham ko'zdan kechirdilar. Mehmonlar yangi joriy qilingan texnologiyalar haqida ma'lumotlar berildi.

2025-01-15 16:29:39